

ÓZBEK MUSIQALI DRAMASI RIVOJLANISH BOSQICHLARI HAMDA DURDONA ASARLARI

Azatov Sardorbek Elbrusovich

ÓzDSMI, “Vokal” kafedrası o‘qituvchisi
Ózbekiston Davlat Sa‘nat va Madaniyat Instituti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10995362>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada musiqali drama sa‘natining sa‘nat olamidagi ahamiyati, rivojlanishi hamda Ózbekiston hududida musiqali drama janrining shakllanish jarayonlari hamda yaratilgan asarlarning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida sóz boradi. Óqituvchi ózining izlanishlari natijasidagi fikri asosida ushbu mavzuni yoritib berishga harakat qilgan.*

***Kalit sózlar:** Musıqa, drama, asar, janr, sóz, kompozitor, xonanda, teatr.*

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ ДРАМАТЫ И ШЕДЕВРЫ

***Аннотация.** В данной статье говорится о значении музыкально – драматического искусства в мире искусства, его развитии, процессах формирования жанра музыкальной драмы на территории Узбекистана, значении созданных произведений в жизни общества. Учитель попытался объяснить эту тему, основываясь на своем мнении в результате своего исследования.*

***Ключевые слова:** Музыка, драма, произведение, жанр, слово, композитор, певец, театр.*

UZBEK MUSICAL DRAMA DEVELOPMENT STAGES AND MASTERPIECES

***Abstract.** This article talks about the importance of musical drama art in the world of art, its development, the formation processes of the musical drama genre in the territory of Uzbekistan, and the importance of the created works in the life of society. The teacher tried to explain this topic based on his opinion as a result of his research.*

***Keywords:** music, drama, work, genre, word, composer, singer, theatr.*

Sa‘nat shunday bir ilohiy kuchki, unda insonning ichki kechinma va holatlari aks etadi. Har bir sa‘nat turi ózining muhim ahamiyatli tomoni bilan ajralib turadi. Ózining gózalligi, muhimligi bilan ajralib turuvchi musiqali drama sa‘nati esa butun dunyo sa‘natida yuksaklik chóqqisiga yetgan deb bemalol aytishimiz mumkin.

Musiqali drama – musıqa hamda sóz sa‘natiga asoslangan sahna asari bólib, u ózidan musiqali teatr janrining paydo bólishiga zamin yaratdi. Uning ilk namunalari V - asr Hindistonda shakllangan bólsa, XII - asrda Xitoyda, XX - asr boshida Ozarbayjonda, Órta Osiyo va Qozog‘istonda 1920-yillarda vujudga kelgan bólsa, Ózbekiston hududida musiqali drama janrining vujudga kelish davri 1910-1920-yillarda shakllana boshlagan deyishimiz mumkin.

Musiqali drama sa‘nati sahna voqealarini qahramonlarning ichki kechinma va holatlari, munosabatlari sóz, musıqa, turli dramatik harakatlar, shuningdek, raqs orqali ifodalaydi. Sóz va musıqa bir birini tóldirib, asar mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Ózbekistonda teatr sa‘natining rivojlanishiga Farg‘ona vodiysida faoliyat olib borgan havaskorlik va professional teatrlar ózining katta hissasini qóshgan. Ushbu ijodkorlarning mehnati samarasi ólaroq musiqali teatrlarning bunyodga kelishiga zamin yaralgan. Negaki, ushbu

ijodkorlar isteʼdodli sozanda, diapazoni keng xushovoz xonandalarni yetishtirib berishda beqiyos hissalarini qóshishgan.

Ózbekistonda musiqali teatr saʼnatining shakllanishida shoir, bastakor, dramaturg, maʼrifatchi, teatr tashkilotchisi Hamza Hakimzoda Niyoziyning órni bólakdir. U avvaldan boshlagan teatrchilik saʼnatini yólga qóyib, ózi rejissyorlik va tashkilotchi bólib faoliyat yurgʻizgan. Óz faoliyati davomida turli mavzularda sahna asarlari yozdi va spektakllarda rol óynab, xilma-xil obrazlar yaratdi va shu orqali Ózbekiston hududida musiqali teatr saʼnatining shakllanishiga tamal toshini qóydi.

XX asrning 50 – 90 yillarida ózbek professional kompozitorlarining yozuvchi – dramaturglar bilan hamkorlikda yaratgan musiqiy sahna asarlariga murojaat qilishdan avval shuni aytib ótish joizki, respublikamizda urushdan avval va keyingi yillarda musiqiy teatrlarga ózbek xalq cholgʻulari ansamblining órniga simfonik orkestr kiritilganidan buyon tengsiz ijodiy hamkorligi bunyodga kelgan edi. Yaʼni ózbek bastakori klassik maqom, mumtoz ashula, yalla, qóshiq va ózlari bastalagan kuylarni yozilayotgan sahna asariga tanlab berar edi. Professional kompozitor esa ularni garmoniyalashtirib, simfonik orkestrga moslashtirar edi. Bunday tengsiz ijodiy metod orqali musiqiy sahna asarlari yaratish uzoq yillardan buyon davom etdi va etib kelmoqda. Quyida biz tilga oladigan barcha sahna asarlar va urushdan keyingi yillarda shu metod asosida viloyat teatrlaridan tashqari faqat Muqimiy nomidagi davlat musiqiy teatr jamoasi sahnada qóygan asarlarga va professional ózbek kompozitorlarining mustaqil ravishda yaratgan musiqiy drama va komediyalarga murojaat qilinmoqda.

Ózbek musiqiy teatr tarixida, ózbek professional kompozitorlarining orasida birinchi marotaba mustaqil ravishda kompozitor Manas Leviev shoir – dramaturg O.Uygʻun bilan hamkorlikda «Oltin kól» nomli musiqiy drama – komediya partiturasini yaratdi. Mazkur asarning premyerasi 1949 yili 6 noyabrda «Muqimiy nomidagi davlat musiqiy teatr» jamoasining ijrosida tomoshabinlarga havola qilindi. Spektaklning premyerasi respublika jamoatchiligida juda katta taassurot qoldirdi. Matbuotda ham asarga, ayniqsa kompozitor ózbek halq musiqasidan «Sitata» kiritmay milliy ruhda orginal musiqa yaratgani mutahassislar tomonidan yuqori baholandi. Ózbek professional kompozitorlarga órnak bólishini bashorat qilishdi. Haqiqatdan ham bashorat zoe ketmadi.

Kompozitor Manas Leviev (1912 – 1990), «Oltin kól»ga musiqa bastalashdan avval, Leningrad Konservatoriyasini bitirgach, yillar davomida musiqaning turli janrlarida asarlar yaratishda kóp ovozli musiqiy uslubda, milliy musiqiy asarlar yaratishda ijodiy izlandi. Mutahassislik mahoratini oshirishga harakat qildi va ayrim ijodiy yutuqlarga muyassar bóldi.

Kompozitor M.Levievning «Oltin kól» musiqiy drama – komediya asari ózbek professional kompozitorlariga órnak bóldi deb ikkilanmay aytishimiz mumkin. Uning taassurotida 50 – 90 yillarda musiqali teatrga konservatoriyani bitirgan professional kompozitorlardan: Sobir Boboiev, Hamid Rahimov, Doni Zokirov, Dadaali Soatqulov, Ibrohim Hamroev, Fattoh Nazarov, Olimjon Halimov, Ikrom Akbarov, Abdurahim Muhammedov, Matniyoz Yusupov, Sul-ton Hayitboev, Sayfi Jalil, Rashidqul Toshmatov, Shohida Shoymardonova, Mustafó Bafóev, Nadim Norxójaev, Avaz Mansurov, Farhod Alimov, Habibulla Rahimov, Bahrullo Lutfullaev, Anvar Ergashev, Botir Umidjonov, Muhammadjon Otajonov va Oy-din Abdullaevalar birin – ketin kirib

keldilar. Ularning har biri óz iste‘dodi va tajriba – mahoratiga loyiq holda spektakllarga mustaqil ravishda musiqa yaratdilar.

Yana bir jamiyat hayotini ózida mujassam etgan musiqiy komedik asar “Jon qizlar” asari hisoblanadi. Zamonaviy qishloq-xójalik mavzuiga bag’ishlangan musiqiy komediyalar orasida kompozitor Abdurahim Muhammedov (1923-1980)ning «Jon qizlar» asari alohida órin egallaydi.

Pyesa mualliflari qirg’iz dramaturglari: K.Shangitboev va K.Bayseitovlar, ózbek tiliga shoir Pólat Mómin tarjima qilgan. Spektaklning premyerasi 1963-yili Muqimiy nomidagi musiqali teatrdá ótgan. Mazkur asar tomoshabinlarda katta qiziqish uyg’otdi va tez orada «Jon qizlar» respublikamizdagi barcha musiqali drama va komediya teatrlarida ham tomoshabinlarga havola qilindi. Asar sahnalarda uzoq umr kórdi.

Ushbu asar XX asrning 60-70-yillariga tóg’ri keladi. Zero, ayni mazkur ónyilliklarda mahalliy kompozitorlar milliy mavzular doirasidan – Yevropa va ózga Sharq adiblari asarlariga izchil murojaat etish bilan tubdan kengaytirildi.

«Jon qizlar»ning mazmuni kolxoz hayotida uchrab turadigan oddiy va qiziqarli voqealar, yosh mutahassislarni kolxozga jalb qilish muammolari bilan bog’langan.

Kompozitor A.Muhammedov komediya janrining xususiyati asosida spektaklga yaratgan original musiqa, ishtirok etuvchi personajlarni quvnoq hatti-harakatlari, ruhiy holatlari hajviy vaziyat voqealar bilan chambarchas bog’langan.

Ya’ni asrni asosiy qahramonlarining sevgi-muhabbatlarida sodir bólgan turli hajviy voqealarning ózgarishlari tufayli ularning psixologik ruhiy ózgarish kechinmalari, rashk tufayli ruhiy azob chekishlari, xursandchilik davronlari musiqada yaqqol aks etilgan. Shular bilan birga spektaklda ishtirok etuvchi boshqa personaj-kolxozchilarning hatti-harakatlari, ularning mazkur yoshlarga turli vaziyatlarda kórsatgan amaliy va ruhiy munosabatlarini aks etuvchi vokal-ansambllar, yakka qóshiqlar, ommaviy xor raqslar ham mavjud.

Umuman «Jon qizlar» musiqali komediyasi mazkur janrning tipik xususiyatlariga tóla-tókis javob beradi va respublikamizda musiqiy komediya janrining rivojlanish jarayonida muhim iz qoldirdi.

Tarixiy mavzuda yaratilgan musiqali sahna asrlari orasida kompozitor S.Boboevning 1958-yili yaratgan «Vatan ishqí» nomli musiqali dramasi muhim rol óynaydi. Ushbu musiqali dramani Muqimiy nomidagi musiqali teatr, keyin barcha viloyat musiqali drama va komediya teatr jamoalari sahnalashtirishdi. Teatrlarning premyeralari katta madaniy voqeaga aylanib ketgan edi. Spektakl uzoq yillar davomida hamma teatrlarda qayta-qayta sahnalashtirildi. Tomoshabinlarning turli avlodlari kórishga, eshitishga muyassar bóldilar. Ya’ni mazkur asar sahnada uzoq qoldi.

«Vatan ishqí» dramasining bunday yutuqqa sazovor bólishining sababi nimada deb óylaysiz? Eng avval shuni aytish joizki, spektaklning adabiy mazmuni va musiqiy dramaturgiyasining yaxlitligidadir. Ya’ni musiqa bilan dramatik voqealarning ajralmas uzviy ravishda bog’lanishi, ishtirok etuvchi qahramonlarning yorqin musiqiy tasvirlari mazkur janrning asosiy xususiyat, qoida talablariga mukammal ravishda javob bera olishi, bundan tashqari spektakl zaminidagi hayotiy voqealar shaxsiy masala bólib qolmasdan ijtimoiy umumdavlat darajasiga kótarilishi muqaddas ona Vatan tuyg’usi bilan yashash va Vatanga jonini qurbon qilish g’oyasi ustuvor turishi bilan ajralib turadi. Shu bilan tomoshabinlarning diqqat e’tiborini beixtiyor óziga tortadi.

Ózbek musiqasida, teatr hayotida ózining ahamiyatligi bilan ajralib turadigan “Nurxon” nomli musiqali drama sahnada uzoq yashadi hamda ózining ahamiyatini saqlab qoldi.

Atoqli bastakor T.Jalilov dramaturg K.Yashin bilan hamkorlikda ózbek ayollarining orasida teatr sanhasiga birinchilardan bólib qadam qóygan yosh aktrisa Nurxon Yóldoshxójaeva (milliy istiqlol dushmanlari tomonidan qatl qilingan) hayotiga bag’ishlangan (ushbu voqea 20-yillarda sodir bólgan) tarixiy fojea asosida «Nurxon» nomli musiqali dramasi bunyodga keltirildi.

Spektaklning premyerasi 1942-yil 23-dekabrda Muqimiy nomidagi musiqiy teatrda ótgan. Asar tomoshabinlar tomonidan qizg’in olqishlar bilan kutib olingan va respublikaning madaniy hayotida katta voqeaga aylanib ketgan. 1942-yildan 1952-yilga qadar asarni musiqasi ózbek xalq cholg’u ansambli jórligida ijro etilgan. 1952-yildan buyon ikkinchi tahrir asosida kompozitor G.Sobitovning simfonik orkestrga yozgan partiturasini tufayli simfonik orkestr tomonidan ijro etilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ózbek musiqali dramalari va ularni boyitadigan ijodkor mualliflar, xalqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish, estetik didini yanada oshirish yólida ijobiy ijod qilib, ózbek musiqasini dunyo miqyosida yuksaklarga kótarishadi deb qolamiz.

REFERENCES

1. Ibrohimov O.A; Xudoyev G’.M; Musiqa tarixi. “Barkamol fayz media” nashriyoti”, Toshkent – 2018.
2. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari Ózbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. “G’ofur G’ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti”, Toshkent - 2000.
3. G’ofurbekov T. Ózbekiston musiqasi madaniyati. Toshkent – 2018.